

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning
hududiy va tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari
tomonidan xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga kiritish
uchun korrupsiyaga qarshi qoidalar (korrupsiyaga qarshi shartlar)ning
mazmuni bo'yicha
ASOSIY SHARTLAR**

1. Xodim ushbu mehnat shartnomasi bo'yicha o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda, korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g'ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida pora taklif qilmaslik, va'da bermaslik, pul tulamaslik, tovlamachilik qilmaslik, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik va pora olmaslik, biron-bir shaxs foydasiga yoki biron bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik, mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik, shuningdek o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik majburiyatini oladi.

2. Xodim atrofndagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyishi shart.

3. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Vazirlikning ichki hujjatlariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rishi va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'ziga ma'lum bo'lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o'rni bosadigan shaxslarni xabardor qilishi shart.

4. Agar xodim Vazirlikning boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlarni aniqlasa, u ushbu ma'lumotni aloqa kanallari orqali Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida ko'rsatilgan shaxslarga taqdim etishi shart.

5. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida Vazirlikning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi talablarni buzgan taqdirda, qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.